(16). Nurmonov A. (2012). *Tanlangan asarlar*. "Akademnashr".
(17). Rahmatullayev Sh. (2006). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. "Universitet".
(18). Rakhimova U.S., Khallieva G.I. (2022). The depiction of age in Enright's short stories. *Journal of Positive School Psychology*, p. 7198–7202.
(19). Raximova U.S., Masharipova N.I. (2024). Ayol xarakterini ifodalovchi paremalarning lingvokulturologik tasnifi. *Eurasian Journal of Academic Research, 4*(11–2), p. 54–59.
(20). Safarov Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
(21). Searle J.R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge University Press.
(22). Short M. (1996). *Exploring the language of poems, plays and prose*. Longman.
(23). Suhandoko. (2024). Existence, expectation, and interference: A corpus stylistics study of word clusters in Jane Austen's works. In *Proceedings of the Annual International Conference of the Association of Lecturers in Adab Sciences (ADIA 2024)*.
(24). Suryanovika C., Julhijah N. (2018). Directive speech acts and hedges presented by female main characters of Jane Austen's novels. *Lingua Cultura, 12*(4), p. 345–350.
(25). Thomas J. (1995). *Meaning in interaction: An introduction to pragmatics*. Longman.
(26). Toolan M. (2009). *Narrative: A critical linguistic introduction* (2nd ed.). Routledge.

Mamajonova Shoiraxon Murodjon qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi; E-mail:shoiraxonmamajonova7@gmail.com)

LEKSIK ZAXIRANI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI METODIK TASHKILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etish va uning shaxsga moslashuvchanligini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Telekommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, ular orqali talabalarning xalqaro hamkorlik, axborot almashinuvi va mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kompyuterli telekomunikatsiyalarning didaktik funksiyalari va ularning pedagogik vazifalarni hal etishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Raqamli ta'lim muhitida adaptiv va individuallashtirilgan yondashuvlarni qo'llash orqali talabalarning kognitiv xususiyatlari, bilim darajasi va o'qish sur'atiga mos ta'lim modellarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy platformalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari hamda ular bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga, kelgusida sun'iy intellekt, mashinali o'qitish, virtual va qo'shimcha reallik hamda mobil texnologiyalar asosida ta'limni yanada takomillashtirish istiqbollari belgilangan.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, adaptiv ta'lim, individuallashtirilgan o'qitish, telekommunikatsiya texnologiyalari, ta'limda hamkorlik, mustaqil ta'lim, didaktik funksiyalar, sun'iy intellekt, mashinali o'qitish, virtual reallik, qo'shimcha reallik, mobil ta'lim, ingliz tilini o'qitish, elektron ta'lim muhiti, ta'lim samaradorligi.*

МЕТОДИЧЕСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ

Аннотация. *В данной статье с научной точки зрения анализируются вопросы организации образования на основе цифровых технологий в условиях глобализации и обеспечения его адаптивности к индивидуальным особенностям личности. Рассматривается роль телекоммуникационных технологий в образовательном процессе, а также возможности развития международного сотрудничества студентов, обмена информацией и самостоятельной учебной деятельности посредством их использования. Кроме того, обосновываются дидактические функции компьютерных телекоммуникаций и их значение в решении педагогических задач. Рассматриваются вопросы формирования в цифровой образовательной среде моделей обучения, соответствующих когнитивным особенностям студентов, уровню их знаний и темпу обучения, посредством применения адаптивного и индивидуализированного подходов. Анализируются преимущества современных платформ, мобильных приложений и технологий искусственного интеллекта в обучении английскому языку, а также проблемы, связанные с их использованием. Наряду с этим определяются перспективы дальнейшего совершенствования образовательного процесса на основе искусственного интеллекта, машинного обучения, виртуальной и дополненной реальности, а также мобильных технологий.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, адаптивное обучение, индивидуализированное обучение, телекоммуникационные технологии, сотрудничество в образовании, самостоятельное*

обучение, дидактические функции, искусственный интеллект, машинное обучение, виртуальная реальность, дополненная реальность, мобильное обучение, обучение английскому языку, электронная образовательная среда, эффективность образования.

METHODOLOGICAL ORGANIZATION OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING LEXICAL RESOURCES

Annotation. *This article provides a scientific analysis of organizing education based on digital technologies in the context of globalization and ensuring its adaptability to individual learners. It examines the role of telecommunication technologies in the educational process, highlighting their potential to foster international collaboration, information exchange, and independent learning among students. In addition, the didactic functions of computer-based telecommunications and their significance in solving pedagogical tasks are substantiated. The study also explores the formation of adaptive and individualized learning models in a digital learning environment, taking into account students' cognitive characteristics, knowledge levels, and learning pace. Furthermore, the advantages of modern platforms, mobile applications, and artificial intelligence technologies in teaching English, as well as the challenges associated with their implementation, are analyzed. The paper also outlines future prospects for enhancing education through artificial intelligence, machine learning, virtual and augmented reality, and mobile technologies.*

Keywords: *digital technologies, adaptive learning, individualized instruction, telecommunication technologies, collaborative learning, independent learning, didactic functions, artificial intelligence, machine learning, virtual reality, augmented reality, mobile learning, English language teaching, e-learning environment, educational effectiveness.*

Kirish. Bugungi globallashgan va integratsiyalangan jamiyatda talabalar alohida o'qish bilan cheklanib qolishlari mumkin emas. An'anaviy, nisbatan yopiq ijtimoiy muhit – o'qituvchilar, do'stlar, oila – ularning ta'lim faoliyati uchun yetarli bo'lmaydi. Shu bois telekomunikatsiya texnologiyalari talabalar uchun keng dunyoga ochiq oyinalarni taqdim etadi. Talabalar tarmoqlar orqali boy axborot resurslariga kirish imkoniga ega bo'lib, turli mamlakatlardagi hamkasblar bilan qiziqqan loyihalarini amalga oshirishda hamkorlik qila oladilar. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali ular dunyo miqyosidagi muammolarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday hamkorlik va qo'shma faoliyat talabalarning individual va guruhlardagi mustaqil bilim olish faoliyatini kuchli rag'batlantiradi. Hamkorlikdagi ish talabalarni muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qilishga, qo'shimcha ma'lumot qidirishga va o'z natijalarini baholashga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi faqat lavozimi tufayli emas, balki ma'lumotning avtoritet manbai va ekspert sifatida qaraladigan rahbar, muvofiqlashtiruvchi va maslahatchiga aylanadi. Sinfda oraliq natijalarni muhokama qilish, diskussiyalar, miya to'plami (brainstorming), taqdimotlar va referatlar yangi mazmunda amalga oshiriladi. Bu jarayonda material faqat o'quv qo'llanmalari va rasmiy manbalardan iborat bo'lmay, shuningdek, boshqa hududlardagi loyiha hamkorlarining fikrlari, ular tomonidan to'plangan ma'lumotlar va faktlarning talqinini ham o'z ichiga oladi. Telekommunikatsiyalar (elektron pochta, telekonferensiyalar) talabalarga dunyodagi voqealarga nisbatan mustaqil qarashni shakllantirish, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va ba'zi muammolarni faqat qo'shma harakatlar orqali yechish mumkinligini tushunish imkonini beradi. Shu jihatdan, bu jarayonlar global fikrlashning asosiy elementlari sifatida baholanadi va zamonaviy ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar. Ta'limining rivojlanish tendensiyalari nuqtai nazaridan kompyuterli telekomunikatsiyalarni tahlil qilganda, ularning didaktik funksiyalarini aniqlash va ushbu vositalar orqali qanday o'ziga xos pedagogik vazifalarni hal qilish mumkinligini ko'rsatish mumkin. Biz didaktik funksiyalar deb ta'lim jarayonida ma'lum maqsadlar uchun qo'llaniladigan o'quv vositalari xususiyatlarining tashqi namoyonini tushunamiz. Bu ularning ta'lim jarayonidagi vazifasi, ahamiyati va o'rnidir. Shu munosabat bilan, telekomunikatsiyalar yuqorida tilga olingan pedagogik muammolarni hal qilishda qanday imkoniyatlar bera oladi va ularning didaktik funksiyalari nima? Albatta, agar faqat ikki kompyuterni masofadagi bir-biriga ulashni ko'zda tutsak va bu texnik jihatdan oson bo'lsa ham, bu hali pedagogik muammoni hal qilish demak emas. Shunday tajribalar AQSHda ham bo'lgan, ammo ular katta samara bermagan. Raqamli texnologiyalar asosida olib borilayotgan ta'lim jarayonida shaxsga moslashuvchanlik talabaning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, ta'lim mazmuni, uslubi va ritmini individuallashtirish imkonini beradi. Moslashuvchan ta'lim modellari talabaning oldingi bilimlari, tajribasi va o'rganish sur'atini hisobga olib, har bir talabaga alohida qo'llab-quvvatlash vositalari va interaktiv resurslar taqdim qilish orqali bilim olish jarayonini samaralilashtiradi. Bu jarayonda vizual, audio va interaktiv materiallardan foydalanish talabaning o'zini qiziqtirgan mavzularni mustaqil o'rganishini rag'batlantiradi hamda ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Shu bilan birga, shaxsga moslashuvchan raqamli ta'lim texnologiyalari talabaning mustaqil

fikrlash, muammolarni hal qilish va yaratuvchanlik koʻnikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ular guruhda hamda individual faoliyatda samarali ishlash imkonini beradi, hamkorlikdagi ta'lim jarayonini qoʻllab-quvvatlaydi va talabalarni turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish, qoʻshimcha ma'lumot qidirish hamda oʻz natijalarini baholashga undaydi. Kompyuterli telekomunikatsiya texnologiyalari orqali talabalar turli maktablar va ilmiy markazlar, shuningdek, turli mamlakatlardan hamkasblari bilan qoʻshma tadqiqot loyihalarini amalga oshirishi mumkin. Bu jarayonlarda proyekt metodikasi asosida ijodiy, tadqiqot va amaliyotga yoʻnaltirilgan mustaqil faoliyatni rivojlantirish mumkin. Telekonferensiyalar, elektron pochta va multimedia texnologiyalari orqali ma'lumot va gʻoyalarni tezkor almashish talabalarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning madaniy va gumanitar rivojlanishiga ham hissa qoʻshadi. Ingliz tilini oʻqitish jaray-niga raqamli texnologiyalarni joriy etish qator muhim afzalliklarni ta'minlaydi. Avvalo, texnologiyalar ta'limni onlayn shaklda tashkil etish imkonini berib, uni dunyoning turli hududlarida joylashgan talabalar uchun ham ochiq va qulay qiladi. Masofaviy ta'limni amalga oshirishda Zoom, Google Classroom va Moodle kabi onlayn platformalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, dars oʻtish, topshiriqlarni taqdim etish hamda bilimni baholash uchun samarali vositalarni taqdim etmoqda. Ikkinchidan, ingliz tilini oʻrganishga moʻljallangan Duolingo, Memrise va Babbel kabi mobil ilovalar oʻquvchilarga oʻqish sur'ati va murakkablik darajasini mustaqil ravishda tanlash imkoniyatini yaratadi. Bu esa ta'lim jarayonining individuallashuviga xizmat qiladi. Ushbu ilovalarda oʻyin elementlari hamda ragʻbatlantiruvchi tizimlar mavjud boʻlib, ular foydalanuvchilarning oʻqishga boʻlgan qiziqishini oshirish va yangi natijalarga erishishga undaydi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari ham til oʻqitishda muhim oʻrin egallaydi. Grammarly va Write&Improve kabi dasturlar talabalarning yozma nutq koʻnikmalarini takomillashtirishga yordam berib, grammatik xatolarni avtomatik ravishda aniqlaydi va uslubiy jihatdan takliflar beradi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi virtual yordamchilar, masalan, Alexa yoki Siri – norasmiy muhitda ingliz tilida muloqot qilishni mashq qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Natijalar.

Leksik zaxirani shakllantirish va kengaytirishning texnologik modeli

№	Komponentlar	Mazmuni	Pedagogik natija
1	Maqsadli komponent	Talabalarning kasbiy yoʻnaltirilgan leksik zaxirasi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish	Leksik va nutqiy kompetensiya shakllanadi
2	Mazmunli komponent	Sohaviy terminologiya, autentik matnlar, kollokatsiyalar, leksik bloklar va nutqiy konstruksiyalar	Leksik material tizimlashadi va boyiydi
3	Shaxsga moslashuvchan komponent	Individual bilim darajasiga mos leksik material, adaptiv ta'lim trayektoriyasi, bosqichma-bosqich oʻzlashtirish	Leksik zaxira individual ravishda samarali shakllanadi
4	Metodik komponent	Kontekstual, kommunikativ, kognitiv, interaktiv va muammoli yondashuvlar	Leksik birliklar ongli va faol oʻzlashtiriladi
5	Texnologik komponent	Elektron platformalar, multimedia, adaptiv testlar, interaktiv trenajyorlar, mobil ilovalar	Raqamli muhitda leksik zahirani kengaytirish ta'minlanadi
6	Faoliyatli komponent	Rolli oʻyinlar, keyslar, leksik mashqlar, loyiha ishlari, virtual muloqot	Nutqiy faollik va amaliy koʻnikmalar rivojlanadi
7	Nazorat-baholash komponenti	Adaptiv testlar, portfolio, amaliy nutqiy topshiriqlar	Leksik kompetensiya darajasi aniqlanadi va nazorat qilinadi
8	Natijaviy komponent	Leksik zaxiraning kengayishi, terminologik fikrlash, kasbiy muloqot qobiliyati	Mutaxassislikka yoʻnaltirilgan kommunikativ kompetensiya shakllanadi

Muhokama. Ingliz tilini oʻqitish jarayoniga texnologiyalarni tatbiq etish qator afzalliklarga ega boʻlishiga qaramasdan, bu jarayon ma'lum qiyinchiliklar bilan ham bogʻliq. Eng asosiy muammolardan biri – oʻqituvchilar va talabalarning texnik tayyorgarlik darajasi hisoblanadi. Onlayn platformalar va mobil ilovalardan samarali foydalanish uchun axborot-kompyuter texnologiyalari bilan ishlashga oid muayyan koʻnikmalarga ega boʻlish talab etiladi. Shu bois oʻqituvchilar raqamli vositalardan foydalanish boʻyicha oʻz bilim va malakalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishlari hamda oʻquv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirishlari zarur. Bundan tashqari, texnologiyalardan foydalanish imkoniyati ham muhim omil hisoblanadi. Barcha talabalar ham zamonaviy qurilmalar yoki barqaror internet tarmogʻidan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bu holat esa ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin. Shuningdek, onlayn ta'lim sharoitida bilimni baholashning yangi usullarini ishlab chiqish

zarurati ham yuzaga keladi, chunki an'anaviy baholash yondashuvlari har doim ham masofaviy ta'lim muhitida kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Kelgusida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalaridan ta'lim jarayonini individuallashtirish hamda har bir talabaning bilim darajasi va ehtiyojlariga moslasha oladigan adaptiv o'qitish tizimlarini yaratishda yanada keng foydalanilishi kutilmoqda. Bunday tizimlar o'quvchilarning o'qish sur'ati va bilim darajasiga qarab avtomatik tarzda moslashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari ta'lim sohasida keng qo'llanilib, o'quvchilar uchun til muhitiga yaqinlashtirilgan immersiv ta'lim makonlarini yaratishga xizmat qiladi. Bunday muhitda talabalar real hayotga yaqin vaziyatlarda til ko'nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, mobil texnologiyalarning ahamiyati ham ortib boradi. Ular o'quvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda bilim olish imkoniyatini yaratib, ta'lim jarayonining yanada moslashuvchan va qulay bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga maqsadli va tizimli integratsiya qilish talabalarning leksik zaxirasini shakllantirish hamda rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot davomida shaxsga moslashuvchan ta'lim muhiti konsepsiyasiga asoslangan holda leksik kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-metodik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari, kognitiv rivojlanish darajasi, tilni o'zlashtirish sur'ati, qiziqishlari hamda kelajakdagi kasbiy faoliyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi bilan an'anaviy yondashuvlardan farq qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, leksik zaxirani shakllantirish jarayoni barcha talabalar uchun bir xil mazmundagi o'quv materiallari asosida emas, balki sun'iy intellekt elementlari, adaptiv algoritmlar va raqamli ta'lim platformalari yordamida individual o'quv trayektoriyalarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv har bir talabaning bilim darajasi va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish, mavjud bo'shliqlarni aniqlash hamda ularga, mos ravishda, o'quv materiallarini avtomatik tanlash imkoniyatini yaratadi. Natijada o'quv jarayoni yanada moslashuvchan, samarali va talabaning ehtiyojlariga yo'naltirilgan shaklga ega bo'ladi. Ishlab chiqilgan metodik tizimda leksik birliklarni tanlash, ularni mavzular bo'yicha tizimlashtirish, kommunikativ vaziyatlarda qo'llash, muntazam takrorlash va mustahkamlash jarayonlari yagona raqamli muhitda amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Bunda yangi so'zlarni faqat yodlash emas, balki ularning semantik, pragmatik va uslubiy xususiyatlarini anglash, turli nutqiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo'llash hamda faol lug'at tarkibiga kiritish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shu sababli talabalarda leksik birliklarni ongli ravishda o'zlashtirish, ularni nutq jarayonida erkin qo'llash hamda yangi kommunikativ vaziyatlarga moslashtirish ko'nikmalari izchil rivojlantirildi. Tadqiqot davomida adaptiv testlar, interaktiv mashqlar, gamifikatsiya elementlari, elektron lug'atlar, multimedia resurslari, audio va videomateriallar hamda vizual axborot vositalaridan kompleks foydalanish metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur vositalarning uyg'un qo'llanilishi talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb etish, ularning motivatsiyasini oshirish, mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish hamda o'rganilgan leksik birliklarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta'minlashga xizmat qildi. Ayniqsa, multimedia texnologiyalari orqali so'zlarning kontekstual qo'llanishini namoyish etish ularning ma'nosini chuqurroq anglash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, shaxsga moslashuvchan raqamli ta'lim muhiti talabalarning individual o'quv faoliyatini samarali boshqarish, o'zlashtirish natijalarini muntazam monito-ring qilish va tahlil etish hamda o'z vaqtida pedagogik korreksiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bu esa ta'lim jarayonining uzluksizligi, izchilligi va samaradorligini ta'minlab, talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Eksperimental tajriba-sinov ishlari natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqladi. Tajriba guruhlarida tahsil olgan talabalar nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan leksik birliklarni o'zlashtirish, ularni nutqda faol qo'llash, matnni tushunish va kasbiy muloqot jarayonida ulardan foydalanish bo'yicha yuqori natijalarga erishdilar. Statistik tahlillar tajriba va nazorat guruhlari natijalari o'rtasidagi farqning ishonchliligini ko'rsatib, taklif etilgan metodik tizimning ilmiy va amaliy asoslanganligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til o'qitish metodikasini takomillashtirish, leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan elektron ta'lim resurslarini yaratish hamda raqamli ta'lim platformalarini samarali joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv nafaqat talabalarning lug'at boyligini kengaytirishga, balki ularning kommunikativ, kasbiy va axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan shaxsga moslashuvchan raqamli ta'lim modeli leksik zahirani shakllantirishning zamonaviy, ilmiy asoslangan va innovatsion mexanizmi sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu model ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quv faoliyatini optimallashtirish, o'zlashtirish sifatini oshirish hamda bo'-

lajak mutaxassislarning xorijiy tilda samarali kasbiy muloqot olib borish kompetensiyasini rivojlantirish uchun mustahkam metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur tadqiqot natijalari kelgusida raqamli pedagogika, adaptiv ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun ham nazariy va amaliy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб. пособие для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров. Е.С.Полат, М.Ю.Бухаркина, М.В.Моисеева, А.Е. Петров. Под ред. Е.С.Полат. М., издательский центр «Академия», 1999, 224 с.

(2). Ларсон Р. Преподавание английского языка в эпоху цифровых технологий. М., “Просвещение”, 2020, с. 87–129.

(3). Melis E., Andrès E., Büdenbender J., Frishauf A., Goguadse G., Libbrecht P., Pollet M., Ullrich C. (2001). ActiveMath: A web-based learning environment. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 12(4), p. 385–407.

(4). Нургелдиева М., Садиева А., Преподавание английского языка в цифровую эпоху: интеграция технологий в обучение языку. Международный научный журнал “Символ науки”, 9-1-1/2024, с. 80–82.

(5). Солдаткин В.И. Электронная педагогика: основания и проблемы. “Байкальский психологический и педагогический журнал”, 2003, № 1, с. 61–70.

(6). Нургелдиева М., Садиева А. Преподавание английского языка в цифровую эпоху: интеграция технологий в обучение языку. Международный научный журнал “Символ науки”, ISSN:2410-700x, 9-1-1/ 2024, с. 80–82.

Nursulton Zamon o‘g‘li Shayxislamov (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti Turizm fakulteti dekani o‘rinbosari, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEK TILIDA AFFIKSLARNING SEMANTIK YAQINLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi affikslarning semantik yaqinligi struktur-semantik va funksional yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi bir xil yoki yaqin derivatsion hamda grammatik ma’nolarni ifodalovchi affikslarning semantik va funksional xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida affikslarning qo‘llanish doirasi, uslubiy differensiatsiyasi va so‘z yasashdagi mahsuldorligi ilmiy misollar asosida yoritiladi. Tahlillar affikslar o‘rtasidagi semantik yaqinlik mutlaq emasligini, ularning qo‘llanishi leksik, uslubiy va pragmatik omillar bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Olingan natijalar o‘zbek tili morfologiyasi va derivatsion lingvistikasida affikslarning semantik munosabatlarini yoritishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *affiks, sinonimiya, affiks sinonimiyasi, derivatsiya, struktur-semantika, funksional grammatika, so‘z yasalishi, morfologiya, uslubiy differensiatsiya, mahsuldor affiks, semantik maydon, funksional tahlil.*

Нурсултон Замон угли Шайхисламов (заместитель декана факультета туризма Чирчикского государственного педагогического университета, доктор философии по педагогическим наукам)

СЕМАНТИЧЕСКАЯ БЛИЗОСТЬ АФФИКСОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье семантическая близость аффиксов узбекского языка рассматривается с позиций структурно-семантического и функционального подходов. Цель исследования заключается в выявлении семантических и функциональных особенностей аффиксов, выражающих одинаковые или близкие словообразовательные и грамматические значения. В работе анализируется сфера их употребления, стилистическая дифференциация и продуктивность в словообразовании на основе языковых примеров. Результаты исследования показывают, что семантическая близость аффиксов не является абсолютной и определяется лексическими, стилистическими и прагматическими факторами. Полученные выводы способствуют дальнейшему изучению семантических отношений аффиксов в морфологии и деривatологии узбекского языка.*

Ключевые слова: *аффикс, семантическая близость, деривация, структурная семантика, функциональная грамматика, словообразование, морфология, стилистическая дифференциация, продуктивный аффикс, семантическое поле, функциональный анализ.*

Nursulton Zamon ugli Shaykhislamov (Deputy Dean of the Faculty of Tourism, Chirchiq State Pedagogical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences)

SEMANTIC SIMILARITY OF AFFIXES IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation. *This article analyzes the semantic similarity of affixes in the Uzbek language from structural-semantic and functional perspectives. The study aims to identify the semantic and functional*